

UDK:8.82.09

MUHAMMAD RIZO OGAHIYNING “TA’VIZ UL-OSHIQIN” DEVONIDAGI
ANTROPONIMIK BIRLIKLAR TADQIQI

Jumaboyeva Difuza Alisherovna

O‘zMU Lingvistika: o‘zbek tili yo‘nalishi 1-kurs magistranti.

+99888-136-80-90 Dilfuzajumaboyeva2@gmail.com.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17367689>

Annotatsiya. Maqolada Muhammad Rizo Ogahiyning “Ta’viz ul-oshiqin” devonida antroponimik birliklarning qo‘llanilishi, shoirning bunday nomlarni qo‘llashdan ko‘zlagan maqsadlari misollar asosida tahlil qilingan. Bunda, asosan, diniy nomlar (payg‘ambarlar, avliyolar va Qur‘onda nomi keltirilgan kishilar) izohining lingvistik xususiyatlari tahlilga tortilgan.

Kalit so‘zlar: onomastika, solih banda, go‘zallik timsoli, pretsedent birliklar, tiriklik ramzi, Masih, debocha.

A STUDY OF ANTHROPONYMIC UNITS IN THE DIVAN OF MUHAMMAD RIZA
OGAHI “TA’VIZ UL-ASHIQIN”

Annotation. The article presents examples of the use of anthroponymic units used in the book “Ta’viz ul-ashiqin” by Mohammad Reza Ogahi, and the poet’s goals for using such names.

Mainly, the linguistic characteristics of the interpretation of religious names (prophets, saints and people mentioned in the Qur‘an) are analyzed.

Key words: onomastics, “righteous banda”, symbol of beauty, precedent units, “symbol of life”, Christ, prologue.

ИССЛЕДОВАНИЕ АНТРОПОНИМИЧЕСКИХ ЕДИНИЦ В ДИВАНЕ
МУХАММАДА РИЗЫ ОГАХИ «ТА’ВИЗ УЛЬ-АШИКИН»

Аннотация. В статье анализируется использование антропонимических единиц в диване Мухаммада Ризы Огахи «Та’виз уль-Ашикин» и цели, преследуемые поэтом при использовании таких имён, на конкретных примерах. В статье анализируются, главным образом, лингвистические особенности интерпретации религиозных имён (пророков, святых и людей, упомянутых в Коране).

Ключевые слова: ономастика, праведный раб, символ красоты, прецедентные единицы, символ жизни, Христос, предисловие.

Mumtoz asarlarni tadqiq etish, yozma manbalarning ilmiy, ma’rifiy, axloqiy-ma’naviy qiymatini belgilash, badiiy jihatlarini yoritish, til xususiyatlarini o‘rganish filologik sohaning asosiy masalalaridan hisoblanadi. Sir emaski, ko‘hna yozma manbalarda xalqimizning turmush tarzi, ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy ahvoli, urf-odati, an‘analari aks etadi. Demak, jamiyat va til tarixidan boxabar bo‘lishda yozma yodgorliklar muhim rol o‘ynaydi. Binobarin, Atoiy asarlari leksik tarkibini tadqiq etish nafaqat o‘zbek xalqining uzoq o‘tmishini ilmiy asosda yoritish, shuningdek, o‘zbek tili va adabiyoti tarixini o‘rganish nuqtai nazaridan ham g‘oyat muhimdir, bu esa mavzuning dolzarbligini asoslaydi.

Mumtoz adabiy manbalar tili leksik - semantik sathini ham an‘naviy, ham sistem - struktur tilshunoslik nuqtayi nazaridan o‘rganish yo‘lida qator tadqiqotlar dunyo yuzini ko‘rdi.

So'nggi yillarda ajdodlarimiz qoldirgan boy ma'naviy-madaniy va adabiy merosga munosabat o'zgardi, ularni o'rganishga qiziqish tobora ortib bormoqda. Xususan, xalqimiz ma'naviyatida o'chmas iz qoldirgan ulug' adiblarning asarlarini asl manbalardan o'qib-o'rganish, ular ijodiga xolis baho berish va targ'ib-u tashviq etish ishlari keng yo'lga qo'yilmoqda. Bugungi kunda ajdodlarimiz ma'naviy merosi, Sharq allomalarining ijodiy merosi har tomonlama o'rganila boshladi. Iste'dodli shoir Atoiyning ilmiy-adabiy merosi, jumladan asarlari tili ham har tomonlama tadqiq etila boshlandi¹. Atoiyning Tanlangan asarlari 1958 va 1960-yillarda e'lon qilingan. Shoir devonining to'liq va mukammal nashri 2008 yilda S.Rafiddinov tomonidan amalga oshirilgan².

Hozirgi kunda tilshunoslikning ko'plab sohalari qatorida onomastika ham rivoj topib bormoqda, bu yo'nalishda qator ilmiy tadqiqot ishlari, jumladan, monografiya, darslik, maqolalar nashr etilmoqda. Jumladan, onomastika tarkibidagi antroponimlar tadqiqiga bag'ishlangan bir qator ilmiy tadqiqot ishlari e'lon qilingan.

E.Qilichev³, N.Husanov⁴, N.Nazarova⁵, N.Xalilova⁶, R.Mo'minova⁷ kabi tadqiqotchilar o'zlarining qator ishlarida antroponimlarning lingvistik xususiyatlarini tadqiq etganlar. Bundan tashqari, o'zbek ismlari (antroponimlari) materiallari atroflicha to'planib, nomzodlik dissertatsiyalari (Э.Бегматов, 1965; F.Сатторов, 1990; С.Раҳимов, 1998; Р.Худойбергенов, 2007) himoya qilingan. E.Begmatovning "Kishi nomlari imlosi", "O'zbek ismlari imlosi", "O'zbek ismlari", "O'zbek ismlari ma'nosi", "Ism chiroyi" nomli kitoblari nashr ettirilgan.

Antroponimika onomastikaning bir bo'limi sifatida kishilarning atoqli otlari, laqablari, taxalluslarini o'rganadi. O'zbek tilshunosligida bu sohada samarali faoliyat olib borgan, o'zining qator ilmiy nomzodlik dissertatsiyalari, maqolalari bilan antroponimika rivojiga sezilarli hissa qo'shgan tilshunos olim E.Begmatov o'zbek antroponimik birliklari sifatida quyidagilarni keltirib o'tadi:

1. Ismlar – konkret shaxsga berilgan ismlar;
2. Laqablar;
3. Taxalluslar;
4. O'zbeklarda shaxsni nomlashning o'tmishda mavjud bo'lgan ba'zi shakllari ("qizi" "o'g'li") yordamida nomlash;
5. Shaxsni uning ismiga o'tmish ajdodlarini nomini tiklash orqali atashning arabcha shakllari ("ibn", "binni") yordamida;
6. O'tgan asrning 20-30-yillaridan rasmiy ravishda majburan qabul qildirilgan ruscha familiya va ota ismlari.

¹ Хожиахмедов А. Огаҳий даҳосининг олмос қирралари. А.Кодирий номидаги халқ мероси нашриёти. -Т., 1999; Ҳамидов З. Огаҳий шеърятининг тили хусусида // Тил ва адабиёт таълими, 2009. №1.74-80; Йўлдошев Р. Огаҳийнинг тил ҳақидаги қарашлари // ЎТА, №3. 2011. Б. 117-119.

² Рафиддинов С. Мавлоно Атойи. Девони шайхзода Атойи. - Т.: Фан, 2008.

³ Қиличев Э. Айний асарларида антропонимларнинг стилистик хусусиятлари // Ўзбек тили ва адабиёти, 1978

⁴ Хусанов Н. Ўзбек антропонимлари тарихи. -Тошкент: Наврўз, 2014.

⁵ N. Nazarova. Antroponimlarning o'rganilishi. - Toshkent. 2021

⁶ N. Xalilova. Antroponimlarning lisoniy tadqiqi xususida. - Toshkent.2021

⁷ R.Mo'minova. Antroponimlarning o'rganilish muammosi. - Toshkent. 2023

Antroponimik birliklar bir qator ilmiy tadqiqotlarning obyekti bo'lgan⁸. Q.Olloyorov⁹ ham o'z maqolasida devonda uchraydigan antroponimik nomlarni tadqiq etgan. Ko'plab shoirilar o'z asarlarida diniy, afsonaviy, mifologik shaxslar nomlarini keltirish orqali ma'lum bir ma'noni ifodalashga harakat qiladilar, bu adabiyot ilmida **talmeh** san'atini vujudga keltiradi. Tilshunoslik ilmida antroponimlar pretsendent birliklar sifatida matn tarkibida o'rganiladi va ular "pretsendent nomlar" deya ta'riflanadi¹⁰. Antroponimlardan ko'p va xo'b foydalangan ijodkor sifatida Ogahiyning keltirishimiz mumkin. Uning devonda foydalangan antroponimik nomlarini quyidagicha guruhlash mumkin:

1. Payg'ambarlar nomlari: Muso, Iso, Sulaymon, Yusuf
2. Avliyolar nomlari: Xizr, Luqmon
3. Hukmdorlar nomlari: Doro, Xisrav, Iskandar
4. Faylasuf va shoirilar: Faridun, Arastu, Navoiy, Munis, Atoiy
5. Badiiy qahramonlar: Farhod, Shirin, Layli, Majnun
6. Afsonaviy qahramonlar: Jamshid, Vomiq, Rustam, Hotam.

Shoirning "Ta'viz ul-oshiqin" devonida eng ko'p keltirilgan shaxs nomi bu Iso Masihdir.

Iso Masih alayhissalom.... qissasi Qur'oni Karimning turli suralarida keltirilgan. Ya'ni, Makkada ham, Madinada ham nozil bo'lgan suralarda Iso alayhissalom haqida ma'lumotlar bor.

Shuningdek, "Maborak" ma'nosini anglatuvchi Iso alayhissalomning sharaflari laqabi bo'lgan "Masih" so'zi 11 marta zikr qilingan¹¹. Iso Masih o'liklarga jon bag'ishlovchi zot sifatida ta'riflanadi. Ogahiy ham o'z g'azallarida Iso Masihning xuddi shu karomatini ifodalashga harakat qiladi:

Garchi Iso nutqidan topg'ay o'luk jon lazzatin,
Lek jonparvar so'zing yuz qotladur ondin laziz. ("Ta'viz ul-oshiqin", 161-b)
Gar dardidin o'lsang ne g'amkim bu kecha aylab karam,
Shirin labu jonbaxsh dam Isoyi davroning kelur. ("Ta'viz ul-oshiqin", 187-b).

Xizr - hadislarda "solih banda" sifatida tilga olinadi. Ayrim din ulamolari uni payg'ambar deb, ayrimlari esa Olloh ilmini ziyoda qilgan solih banda deya hisoblashgan. Imom Buxoriy, Ibn Qayyimlar fikricha Xizr boshqa insonlar singari vafot etgan. Uning tirikligi aytilgan barcha hadislar nosahihdir¹². "Qissasi rabg'uziy" ning "Muso birla Xizrning rif'at darajasi bayoni" bobida ul zot haqida quyidagilar bitilgan: Muso xushlanib aydi: "Iziyo, bu karomatkim manga berding, azin kim ersaga berdingmu?" Yorlig' keldi: Ey Muso, tengizlar azoqinda maning bir qulim bor. Saning ilming aning ilmi to'shinda bir qatra suvcha bo'lg'ay.

Aning ilmi daryodek"¹³. Bu o'rinda Xizrda ishora qilinmoqda.

Ogahiy devonining juda ko'p o'rinlarida bu zotning umriboqiy ekanligi, ya'ni "obi hayot" suvidan ichganligi, insonlarga doim hayot, yaxshilik ulashishiga ishora qiladi.

Agar hayvon zulolin Xizr bersa og'zima olmon,

⁸ Бегматов Э.А. Ўзбек тили антропонимикаси. -Тошкент: Фан, 2013.

⁹ Q.Olloyorov. Muhammadrizo Ogahiyning "Ta'viz ul-oshiqin"devonida uchraydigan onomastik birliklarning lisoniy xususiyatlari.-Toshkent. 2020

¹⁰ Д. Худойберганаева. Матнинг антропоцентриқ тадқиқи. Диссертация. — Тошкент: Фан, 2013.

¹¹ Muhammad Sayyid Tantaviy. Payg'ambarlar tarixi. Qur'oni Karim qissalari. Tarjimon: Ziyovuddin Rahim

¹² O'sha asar.

¹³ Носируддин Рабғузӣй. Қисаси Рабғузӣй. - Т.: Ёзувчи, 1991.-Б. 20

Ki, durdi boda lutf etsa manga gulchehra soqiy bas. (234-bet)

Ogahiy hatto bitta g'azalida bir necha bor bu obrazga murojaat qiladi va har bir murojaatida uning nomini "obi hayvon"ga, ya'ni "tiriklik suvi" ga bog'laydi, "Gulshan atrofida rayhon" (260-bet), "Topdi jovidon xat" (259-bet) nomli g'azallarini fikrimizning isboti sifatida keltiramiz.

Chashmayi hayvon uza Xizr aylagandekdur makon,

Buki qilmish la'li jon baxshi uza orom xat. ("Gulshan atrofida rayhon")

Bo'ldi la'li jonbaxshing uzra to namoyon xat,

Ey pari, Xizr yanglig' topdi jovidon jon xat ("Topdi jovidon xat")

Ogahiygacha ham mumtoz adabiyotda Xizr obrazi faol bo'lgan va aynan "tiriklik ramzi" sifatida qo'llanilgan. Shoir ham bu an'anani davom ettirgan holda o'z she'rlariga bu obrazni olib kirgan.

Sulaymon (a.s) - Qur'onda nomi zikr etilgan payg'ambar hisoblanadi. U haqida Fariduddin Attorning "Ilohiynoma" ¹⁴ asarida anchagina rivoyatlar keltirib o'tilgan. Badiiy adabiyotda ko'proq uning shohligiga, butun ins-u jinslar, shamol, qushlar, parilar, devlarni o'ziga bo'ysundirganligi, sehrli uzugi va taxtiga urg'u beriladi, ya'ni uning shunday ulkan saltanatni o'z qo'l ostida tutib adolatli boshqara olganligi e'tirof etiladi. Yusuf hos Hojib ham Sulaymon payg'ambarning aynan shu xislatini tasvirlaydi: **Qanī yek parī quš bu yalquq Ūzā, uluyluq qīlīyli qīlīnči tūz-ā** – Qani dev, pari, qush (va) xalqlar Uzra, ulug'lik qilgan fe'l-atvori go'zal (kishi)[Yusuf hos Hojib. Qutadg'u bilig]. Ogahiy ham o'z g'azallarida Sulaymon (a.s)ning yuqorida ta'kidlab o'tilgan xislatlarini keltirishga va shu yo'l bilan metaforik o'xshatishlar yaratishga erishadi.

Qo'lig'a topshurub iqbolu davlat hotamin to hashr,

Bori ofoq elig'a hukm surmakda Sulaymon et.(120-b.)

Ushbu misralar orqali shoir Sulaymon (a.s)ning haqgo'y va adolatparvar hukmdor bo'lganligi, o'z eliga doim muruvvatli bo'lganligini ifodalashga harakat qiladi. Rabg'uziy o'z asarida¹⁵ "Sulaymon qarinchqa bilan so'zlashgani" bobini keltirib o'tadi va unda Sulaymonning qarinchqa (chumoli) bilan bo'lgan suhbatini o'z aksini topadi. Bunda ikkisi ham o'z eliga hukmdor ekanligi va saltanatidagi har bir tirik jon uchun mas'ul ekanligi g'oyasi ilgari surilgan. Ogahiy devonida **qarinchqa** so'zi o'rnida **mo'r** so'zi qo'llaniladi, shoir debochadayoq **Sulaymon va mo'r** obrazlariga murojaat qiladi:

Yo'qki g'alat ayladim, o'ylaki bir xasta mo'r,

Chekkusi poyi malax tuhfa Sulaymon sori.

Yana bir misol:

Lojaram jon naqdin olib kelmisham,

Mo'rdin budur Sulaymon tuhfasini (78-b)

Qorun - Qur'onda nomi keltirilgan, Muso alayhissalom qavmidan bo'lgan kishi. Sinov tariqasida unga Olloh taolo tomonidan shu qadar ko'p boylik beriladiki, sanog'i o'ziga ma'lum emas edi. Lekin u noshukrlik ila Ollohga isyon qildi va barcha boyliklarining sababchisi o'zi ekanligini aytdi. Qorun ham qavmiga zo'ravonlik qilgani uchun Alloh uni yerga yutdirib tashladi.

¹⁴ Shayx Fariddun Attor. Ilohiynoma. - T.:Musiq,2007

¹⁵Носируддин Рабғузӣ. Қисаси Рабғузӣ. - Т.: Ёзувчи, 1991. - Б. 35-38

Alloh taolo u haqda shunday xabar qilgan: “Albatta, Qorun o‘zi Muso qavmidan edi. Bas, u (qavmdoshlariga) kibr havo qildi... Bas, Biz (Qorunni) ham, uning hovli-joyini ham Yerga yutdirdik” (Qasos surasi, 76-81-b.). Ogahiy ham g‘azallarida Qorunning moliga ishora qiladi.

Yer yuzining naqdi-yu ostida **Qorun** moli ham

Jam o‘lib sarto qadam ganjingga munzam bo‘ldi tut (118-b.).

Har odamiki davlatu himmatg‘a topdi dast,

Yo‘qtur anga xazinayi **Qorung‘a** ihtiyoj (139-b.)

Falotun (Aflotun) miloddan avvalgi IV asrda yashagan faylasuf olim. Shoir o‘z ijodida Falotunning o‘ta aqlli, mutafakkir shaxs bo‘lganligiga ishora qiladi:

Ilm-u hikmatda o‘tub haddin kamoli donishing,

Yuz **Falotun** ajz ila olingda mulzam bo‘ldi tut (118-b.)

Ayyub - Qur‘oni Karimning to‘rt o‘rinda nomi zikr etilgan payg‘ambar. Ayyub (a.s.) Allohning ikki sinoviga uchradilar. Birinchidan og‘ir dardga muhtalo bo‘ldilar, badanlari irib, qurtlab ketdi, tillari va qalblaridan boshqa sog‘ joylari qolmadi va ana shu imtihon o‘n sakkiz yil davom etdi. Ikkinchidan butun mol-dunyolari yo‘q bo‘ldi¹⁶. Devonda Ayyub (a.s) sabr timsoli sifatida keltirilgan:

Ey ko‘ngul, vasl istasang sabr et balou dardg‘a

Kim, muqarrib tangrig‘a bu shevadin **Ayyub** eruru (203-b.)

Yusuf - Ya‘qub alayhissalomning o‘g‘li, Qur‘onda nomi zikr etilgan payg‘ambar.

Go‘zallik timsoli sifatida e‘tirof etiladi:

Yo‘qsa maqsad **Yusufi** ravshan jamoli mehrining,

Partavi birla munavvar chohi bobildur mango (82-b.).

Shuningdek, devonda Yusuf (a.s) nomi ba‘zi o‘rinlarda birikmali tarzda ham ifodalanadi:

Yusufi Misriy ango gar qulluq etsa tong emas,

Kim, bori olam aro husn ahlig‘a sulton erur... (195-b.)

Bunda uning tug‘ilib o‘sgan joyiga ishora tarzida “misrlik Yusuf” birikmasidan foydalanilgan. Bundan tashqari, “Mohi Kan‘on”, ya‘ni “Kan‘onning oyi” birikmasi ham qo‘llaniladi. Bunday hodisa tilshunoslikka oid adabiyotlarda alluziya deb nomlanadi¹⁷.

Ya‘qub - Qur‘onda nomiz zikr etilgan payg‘ambar. Ya‘qub (a.s) Yusuf (a.s) ning otasi bo‘lib, uning ko‘yida yig‘lab, oxir-oqibat ko‘zlari ojiz bo‘lib qoladi. Ogahiy ham qayg‘uli holatni ifodalash uchun ushbu motivdan foydalanadi.

Oh tortib lahza-lahza bedili mankubdek,

Hech tinmay dam-badam qon yig‘labon **Ya‘qubdek** (112-b.)

Xulosa qilib aytganda Atoiyning so‘z boyligini lingvistik nuqtayi nazardan o‘rganish yodgorlik tilidagi leksik birliklarning qo‘llanishi yuzasidan aniq ma‘lumotga ega bo‘lish, onamastik birliklarning miqdor bo‘yicha nisbati to‘g‘risida fikr-mulohazalar yuritish, so‘z qo‘llash mahorati hamda o‘ziga xos jihatlari haqida tasavvur hosil qilishga yordam beradi.

Asarning til xususiyatlarini atroflicha o‘rganish ko‘p asrlik tarixga ega bo‘lgan o‘zbek adabiy tilining shakllanishi va rivojlanishi borasidagi qarashlarga aniqlik kiritadi hamda o‘zbek tili tarixiy leksikologiyasi uchun ham qimmatli ma‘lumotlar beradi.

¹⁶ Rahmatulloh qori Obidov. Payg‘ambarlar tarixi islomiyat tarixidir. - Toshkent. Movorounnahr, 2005

¹⁷ Ёўлдошев М. Бадиий матн лингвопоэтикаси. –Тошкент: Фан, 2008

Foydalangan adabyotlar

1. Ҳожиаҳмедов А. Огаҳий даҳосининг олмос қирралари. А.Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти.-Т.,1999; Ҳамидов З. Огаҳий шеърятининг тили хусусида // Тил ва адабиёт таълими, 2009. №1.74-80; Йўлдошев Р. Огаҳийнинг тил ҳақидаги қарашлари // ЎТА, №3. 2011. Б. 117-119.
2. Рафиддинов С. Мавлоно Атоий. Девони шайхзода Атоий.-Т.: Фан, 2008.
3. Қиличев Э. Айний асарларида антропонимларнинг стилистик хусусиятлари // Ўзбек тили ва адабиёти, 1978
4. Ҳусанов Н. Ўзбек антропонимлари тарихи. -Тошкент: Наврўз, 2014.
5. N. Nazarova. Antroponimlarning o'rganilishi. - Toshkent. 2021
6. N. Halilova. Antroponimlarning lisoniy tadqiqi xususida. - Toshkent.2021
7. R.Mo'minova. Antroponimlarning o'rganilish muammosi. - Toshkent. 2023
8. Бегматов Э.А. Ўзбек тили антропонимикаси. -Тошкент: Фан, 2013.
9. Q.Olloyorov. Muhammadrizo Ogahiyning "Ta'viz ul-oshiqin"devonida uchraydigan onomastik birliklarning lisoniy xususiyatlari.-Toshkent. 2020
10. Д. Худойберганова. Матннинг антропосентрик тадқиқи. Диссертация. — Тошкент: Фан, 2013.
11. Muhammad Sayyid Tantoviy. Payg'ambarlar tarixi. Qur'oni Karim qissalari. Tarjimon: Ziyovuddin Rahim
12. Носируддин Рабғузий. Қисаси Рабғузий. - Т.: Ёзувчи, 1991.-Б. 20
13. Shayx Farididdun Attor. Ilohiynoma. - Т.:Musiq,2007
14. Носируддин Рабғузий. Қисаси Рабғузий. - Т.: Ёзувчи, 1991. - Б. 35-38
15. Rahmatulloh qori Obidov. Payg'ambarlar tarixi islomiyat tarixidir. - Toshkent. Movorounnahr, 2005
16. Йўлдошев М. Бадиий матн лингвопоэтикаси. —Тошкент: Фан, 2008